

O'ZBEKISTON VA SINGAPUR DAVLATLARI O'RTASIDAGI XALQARO MINTAQAVIY HAMKORLIK

Qirg'izboyev Muqimjon

Siyosiy fanlar doktori, professor, O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Qo'shiyeva Sevara Keldibek qizi

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati 2- kurs magistranti*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi va Singapur Respublikasi o'rtasidagi xalqaro mintaqaviy hamkorlikning shakllanishi, rivojlanish dinamikasi va istiqbollari tahlil qilingan. Muallif ikki davlat o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, ta'limiy va texnologik yo'nalishlardagi hamkorlik shakllari va ularning samaradorligiga e'tibor qaratgan. Tadqiqotda tizimli-tahliliy, qiyosiy va kontent-tahlil metodlari asosida real ma'lumotlar asosida mintaqaviy aloqalarning hozirgi holati yoritilgan. Shuningdek, Singapur tajribasining O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari va mavjud to'siqlar tahlil qilinib, kelgusidagi hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *xalqaro hamkorlik, mintaqaviy integratsiya, O'zbekiston, Singapur, innovatsiya, ta'lim, iqtisodiy diplomatiya.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается формирование, динамика развития и перспективы международного регионального сотрудничества между Республикой Узбекистан и Республикой Сингапур. Автор акцентирует внимание на политическом, экономическом, образовательном и технологическом взаимодействии двух государств. На основе системно-аналитического и сравнительного подходов, а также анализа официальных источников, в статье раскрыто текущее состояние и ключевые направления двустороннего сотрудничества. Также анализируются возможности применения опыта Сингапура в условиях Узбекистана и предлагаются практические рекомендации по дальнейшему углублению партнерства.*

Ключевые слова: *международное сотрудничество, региональная интеграция, Узбекистан, Сингапур, инновации, образование, экономическая дипломатия.*

Annotation. *This article explores the formation, development dynamics, and prospects of international regional cooperation between the Republic of Uzbekistan and the Republic of Singapore. The author focuses on the political, economic, educational, and technological dimensions of bilateral relations. Using a system-analytical and comparative approach, the study analyzes the current state of cooperation based on real data and official sources. Furthermore, the article evaluates the potential application of Singapore's experience in Uzbekistan and provides practical recommendations for deepening bilateral partnership in the future.*

Keywords: *international cooperation, regional integration, Uzbekistan, Singapore, innovation, education, economic diplomacy.*

Kirish. Bugungi globallashuv va o'zaro integratsiyalashuv jarayonlari tobora jadallashib borayotgan bir davrda O'zbekiston Respublikasi tomonidan olib borilayotgan ochiq tashqi siyosat, xalqaro maydondagi ishonchli hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Mamlakatimiz 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan siyosiy-iqtisodiy islohotlar, tashqi iqtisodiy aloqalarning geografiyasini kengaytirish, strategik sheriklik doirasini mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlar natijasida Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi rivojlangan davlatlar bilan o'zaro hamkorlikning yangi bosqichiga o'tdi. Ayniqsa, Singapur Respublikasi bilan bo'layotgan hamkorlik aloqalari so'nggi yillarda sezilarli darajada faollashib, o'zining samarali natijalarini bermoqda.

Singapur – Janubi-Sharqiy Osiyodagi eng rivojlangan, innovatsion iqtisodiyotga ega, xalqaro moliyaviy markazlardan biri sifatida tanilgan davlatdir. Uning iqtisodiy modeli, davlat boshqaruvi tizimidagi shaffoflik, korrupsiyaga qarshi kurashishdagi qat'iy yondashuvi hamda inson kapitaliga yo'naltirilgan strategik siyosati butun dunyoga namuna sifatida e'tirof etiladi. O'zbekiston uchun esa Singapur bilan munosabatlar, bir tomondan, iqtisodiy manfaatdorlikni ta'minlash vositasi bo'lsa, boshqa tomondan, ilg'or tajriba va bilimlarni import qilish imkoniyati sifatida qaraladi.

2022-yilning dekabr oyida Singapur Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari, iqtisodiyot va davlat xizmati masalalari bo'yicha vazir Xen Svy Kitning O'zbekistonga rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi. Ushbu tashrif doirasida O'zbekiston-Singapur biznes forumi bo'lib o'tdi va u yerda umumiy qiymati 5 milliard AQSH dollaridan ortiq bo'lgan 40 dan ziyod ikki tomonlama bitimlar

imzolandi. Jumladan, energetika, infratuzilma, qishloq xo‘jaligi, ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalarida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi. Bundan tashqari, Singapurda faoliyat yurituvchi “Indorama”, “Pavilion Energy”, “Meinhardt Group”, “PSA International” kabi yetakchi kompaniyalarning O‘zbekiston bozoriga kirib kelishi va faoliyat olib borayotgani o‘zaro ishonchli va barqaror investitsiyaviy muhit yaratilganidan dalolat beradi. Ayniqsa, “Indorama” kompaniyasining paxtachilik, to‘qimachilik hamda kimyo sanoatidagi sarmoyalari mintaqaviy sanoat kooperatsiyasini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta‘lim sohasidagi hamkorlik ham alohida e‘tiborga loyiq. 2019-yilda Toshkent shahrida ochilgan “Singapore Management Development Institute” (MDIS) Singapurdagi ilg‘or ta‘lim standartlarini O‘zbekistonga olib kirishga xizmat qilmoqda. Ushbu institut orqali yuzlab yoshlar zamonaviy biznes, menejment, texnologiya va muhandislik yo‘nalishlarida yuqori sifatli ta‘lim olish imkoniga ega bo‘lmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, inson kapitalining raqobatbardoshligini oshiradi va mamlakatda innovatsion rivojlanish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, O‘zbekiston va Singapur o‘rtasidagi xalqaro va mintaqaviy hamkorlik faqat ikki tomonlama savdo va investitsiya almashinuvi bilan cheklanib qolmay, balki keng qamrovli strategik sheriklikka aylanib bormoqda. Ikkala davlatning iqtisodiy modelidagi farqlarga qaramay, o‘zaro manfaatdorlik va pragmatik yondashuv orqali samarali integratsiya mexanizmlari yaratilmoqda. Ayniqsa, O‘zbekistonning “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan maqsadli islohotlar Singapur tajribasidan foydalanish va uni milliy sharoitlarga moslashtirish uchun muhim zamin yaratmoqda.

O‘zbekiston va Singapur davlatlari o‘rtasidagi xalqaro mintaqaviy hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari, ularning tarixiy shakllanish bosqichlari, iqtisodiy-siyosiy ko‘rsatkichlar asosidagi tahliliy jihatlar hamda istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shu orqali ikki mamlakat o‘rtasidagi sheriklik munosabatlarini chuqur tahlil qilish va mavjud imkoniyatlarni yanada kengaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar beriladi.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqot mavzusi doirasida mavjud bo‘lgan ilmiy manbalar, statistik hisobotlar, xalqaro tashkilotlar tahlillari va ekspert fikrlarini chuqur o‘rganish orqali aniqlanishicha, O‘zbekiston va Singapur o‘rtasidagi xalqaro hamkorlik, xususan, mintaqaviy miqyosdagi aloqalar hozirgi global integratsiya jarayonlari kontekstida o‘ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, bu yo‘nalishda mavjud ilmiy adabiyotlar yetarli darajada chuqur va

tizimli ko'rib chiqilmagan bo'lib, mazkur mavzuning ilmiy asosda tadqiq etilishi katta zarurat ekanligi yaqqol seziladi. Mazkur mavzuga doir o'zbek va xorijiy mualliflarning ilmiy ishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi eng muhim hamkorlaridan biri bo'lmish Singapur bilan o'zaro aloqalari hali to'liq o'rganilmagan. Jumladan, A. To'laganov, M. Nishonov, Z. Raxmatova, hamda N. Salohiddinov kabi olimlarning xalqaro iqtisodiy integratsiya, tashqi savdo va investitsion aloqalar bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida O'zbekistonning turli mintaqalar bilan hamkorligi yoritilgan bo'lsa-da, aynan Singapur bilan ikki tomonlama strategik sheriklik masalalari ko'proq umumiy siyosiy-ijtimoiy kontekstda berilgan, muayyan sohalar kesimidagi chuqur tahlillar yetarli darajada yoritilmagan.

Singapur tomonidagi manbalarga murojaat qilinganda, Singapore Economic Development Board (EDB), Enterprise Singapore, Ministry of Trade and Industry, hamda International Enterprise Singapore kabi muassasalar tomonidan e'lon qilingan strategik hujjatlar, siyosiy dasturlar va investitsion tahlillar O'zbekiston uchun alohida qiziqish uyg'otadi. Ushbu hujjatlarda Singapurning raqamli iqtisodiyotga o'tish tajribasi, yuqori samarali davlat boshqaruvi modeli, hamda "Smart Nation" konsepsiyasi asosida olib borilayotgan modernizatsiya jarayonlari atroflicha yoritilgan. Bu jihatlar aynan O'zbekistonning hozirgi bosqichdagi rivojlanish strategiyasi bilan bevosita uyg'unlik kasb etadi. Bundan tashqari, BMT (UNCTAD), Jahon banki (World Bank), Osiyo taraqqiyot banki (ADB) hamda OECD kabi xalqaro tashkilotlarning O'zbekiston va Singapur bo'yicha tayyorlagan so'nggi yillardagi hisobot va sharhlari, bu ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikning iqtisodiy, sarmoyaviy va institutsional jihatlarini o'rganishda muhim axborot manbai hisoblanadi. Masalan, ADB'ning 2023-yilda e'lon qilgan "Country Partnership Strategy for Uzbekistan" hujjatida Singapur innovatsion va texnologik sherik sifatida alohida ta'kidlangan. Bu esa o'z navbatida ikki davlat o'rtasidagi o'zaro aloqalarning yangi bosqichga o'tayotganidan dalolat beradi.

Ta'lim sohasidagi hamkorlikka doir adabiyotlarda Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan Management Development Institute of Singapore (MDIS) filialining tashkil etilishi O'zbekiston va Singapur o'rtasidagi inson kapitalini rivojlantirishdagi amaliy hamkorlik namunasi sifatida ko'rsatilgan. Bu boradagi manbalar ta'lim tizimidagi ilg'or tajribalarni O'zbekistonda joriy etish, o'qituvchilarning malakasini oshirish, va zamonaviy kasb-hunar yo'nalishlarini rivojlantirishda Singapur modeli samarali yo'nalish bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Tahlil jarayonida e'tibor qaratilgan yana bir muhim jihat shuki,

mavjud adabiyotlarda O'zbekistonning transport-logistika imkoniyatlarini kengaytirish jarayonida Singapur port infratuzilmasi va boshqaruv modeli tajribasidan foydalanish imkoniyatlari yetarli yoritilmagan. Bu esa ushbu mavzuda keyingi ilmiy izlanishlar uchun istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mavjud adabiyotlar O'zbekiston va Singapur o'rtasidagi aloqalarning faqat yuzaki tasvirini beradi, ammo chuqur tahliliy va qiyosiy yondashuvlar, ayniqsa, sohalar kesimida olib borilgan tadqiqotlar yetarli emas. Shu boisdan ham, mazkur ilmiy ish orqali ushbu bo'shliqni to'ldirish, zamonaviy mintaqaviy integratsiya nuqtai nazaridan ikki davlat o'rtasidagi strategik hamkorlikni chuqur tahlil qilish va ilmiy asoslangan xulosalarga kelish maqsad qilib olindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida men bir qator zamonaviy ilmiy tadqiqot metodlariga tayanishga harakat qildim. Avvalo, tadqiqotning mazmunan to'laonli, tahliliy va qiyosiy xarakterga ega bo'lishi uchun tizimli yondashuv asos qilib olindi. O'zbekiston va Singapur o'rtasidagi xalqaro hamkorlikning mintaqaviy va strategik o'ziga xos jihatlarini chuqur o'rganish, mavjud manbalarni tahlil qilish va zamonaviy siyosiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'lash maqsadida kompleks metodlar majmuasi qo'llanildi.

Tadqiqot doirasida men quyidagi asosiy ilmiy yondashuvlardan foydalandim:

- Tizimli-tahliliy metod yordamida O'zbekiston va Singapur o'rtasidagi diplomatik, iqtisodiy, ta'limiy va texnologik aloqalarning tarkibiy qismlarini o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqdim. Har bir hamkorlik sohasi alohida emas, balki umumiy mintaqaviy siyosat kontekstida o'rganildi.

- Qiyosiy tahlil metodi orqali ikki mamlakatning rivojlanish modeli, tashqi iqtisodiy siyosati, investitsion muhit va raqamli transformatsiya jarayonlarini taqqoslashga harakat qildim. Bu esa O'zbekiston uchun Singapur tajribasining qay jihatlarini muhimligini aniqlash imkonini berdi.

- Statistik tahlil metodi orqali rasmiy ma'lumotlar — xususan, savdo hajmi, investitsiya oqimi, ta'lim loyihalari soni va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarga tayandim. Jahon banki, UNCTAD, Osiyo taraqqiyot banki, Enterprise Singapore kabi nufuzli tashkilotlarning ochiq ma'lumotlar bazasi bu borada asosiy manba bo'ldi.

- Kontent-tahlil (mazmuniy tahlil) yondashuvi asosida men ikki davlat o'rtasidagi rasmiy hujjatlar, qo'shma bayonotlar, strategik hamkorlik to'g'risidagi memorandumlar, shuningdek, davlat rahbarlarining nutqlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan tayyorlangan sharhlarni tahlil qildim. Bu usul

menda real siyosiy kontekstda qanday yondashuvlar amalga oshirilayotganini tushunish imkonini berdi.

- Tavsiflovchi metod yordamida Singapur va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlikning tarixiy shakllanish bosqichlari, hozirgi holati va kelajakdagi rivojlanish imkoniyatlarini izchil tarzda yoritishga harakat qildim.

- Bundan tashqari, ayrim hollarda men ekspert baholash yondashuvini ham qo‘lladim. Xususan, ta‘lim, logistika va texnologiya transferi bo‘yicha yetakchi ekspertlarning fikrlari, xalqaro reytinglar va xalqaro indekslar sharhlarini chuqur o‘rganish orqali o‘z tahlilimni boyitdim.

Tadqiqot obyekti sifatida — O‘zbekiston va Singapur o‘rtasidagi xalqaro hamkorlik tizimi tanlab olindi. Tadqiqot predmeti esa — ikki davlat o‘rtasida shakllanayotgan mintaqaviy hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari, omillari, mexanizmlari va istiqbollari hisoblanadi. Shuni alohida ta‘kidlashni istardimki, tadqiqot davomida men mavzuga bir tomonlama yondashmaslikka, aksincha, uni siyosiy-iqtisodiy, madaniy-ta‘limiy va institutsional nuqtai nazardan yoritishga intildim. Natijada, O‘zbekiston va Singapur o‘rtasidagi mintaqaviy hamkorlikning zamonaviy ko‘rinishlari va uni yanada chuqurlashtirishga doir ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Munozara. O‘zbekiston va Singapur o‘rtasidagi xalqaro mintaqaviy hamkorlikning hozirgi bosqichi ikki davlat tashqi siyosatining mosligi, iqtisodiy manfaatlar uyg‘unligi va global tendensiyalarga mos strategik yondashuvlar bilan izohlanadi. Ushbu hamkorlik, bir tomondan, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida ochiq, barqaror va modernizatsiyalashgan davlat sifatida e‘tirof etilishini ta‘minlasa, boshqa tomondan, Singapur uchun ham yangi iqtisodiy bozorlar va geosiyosiy ta‘sir doirasi kengayishini anglatadi. Munozara jarayonida aniqlangan eng muhim jihatlardan biri – bu ikki davlatning o‘zaro hamkorlikda innovatsion texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, ta‘lim va logistika sohalariga alohida e‘tibor qaratayotganidir. Jumladan, Singapurda faoliyat yurituvchi “Enterprise Singapore” agentligi orqali O‘zbekiston bilan sarmoya va texnologiya transferi bo‘yicha bir nechta qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarda yuqori texnologik yechimlar, elektron boshqaruv tizimlari va raqamli infratuzilmaning joriy etilishi alohida ahamiyatga ega. Biroq, hamkorlikda mavjud bo‘lgan ijobiy omillar bilan bir qatorda ayrim cheklov va to‘siqlar ham kuzatilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston investitsion muhiti tobora liberallashtirib borayotganiga qaramay, Singapur kompaniyalari uchun byurokratik tartiblar, qonunchilikdagi o‘zgaruvchanlik va infratuzilmaviy muammolar hali ham muhim to‘siq bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, ikki

davlat o'rtasidagi geografik uzoqlik, madaniy tafovutlar va logistik muvofiqlashtirish masalalari ham hamkorlik samaradorligiga ta'sir etayotgan omillardan biridir.

Shunga qaramay, ikki tomonlama aloqalarning istiqboli ijobiy baholanmoqda. Singapur — bu iqtisodiy jihatdan yuqori darajadagi xizmatlar eksportchisi va global moliyaviy markaz sifatida O'zbekistonning iqtisodiy modernizatsiyasi jarayonida muhim hamkor bo'lishi mumkin. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot va ta'lim tizimini zamonaviylashtirish sohalarida Singapur tajribasini chuqur o'rganish va amaliyotga tatbiq etish orqali O'zbekiston ichki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda katta yutuqlarga erishishi mumkin. Yana bir muhim jihat shundaki, Singapur Markaziy Osiyo mintaqasiga strategik nuqtai nazardan qaramoqda. Shu sababli, O'zbekiston bilan aloqalarni mustahkamlash orqali u mintaqaviy siyosiy barqarorlik, energiya xavfsizligi va yangi savdo yo'llariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga intilmoqda. Bu esa O'zbekistonning geosiyosiy ahamiyatini yanada oshiradi va uni ko'p qirrali tashqi siyosat yurituvchi davlat sifatida namoyon etadi. Yuqoridagilar asosida aytish mumkinki, O'zbekiston va Singapur o'rtasidagi xalqaro mintaqaviy hamkorlik, har ikki davlatning milliy manfaatlari va global integratsiyaga intilishi doirasida strategik ahamiyatga ega. Ushbu hamkorlikni rivojlantirish uchun har ikki tomonning siyosiy irodasi, tizimli yondashuvi, o'zaro ishonchga asoslangan tashabbuslari muhim omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, O'zbekiston va Singapur o'rtasidagi xalqaro mintaqaviy hamkorlik ikki tomonlama manfaatlarga asoslangan, barqaror va strategik xarakterga ega ekani ayon bo'ladi. So'nggi yillarda O'zbekiston tashqi siyosatida ochiqlik, iqtisodiy islohotlar va xalqaro integratsiyaga intilish kuchaygan bo'lsa, Singapur tomonidan bu jarayonlarga nisbatan katta qiziqish bildirilmoqda. Natijada, siyosiy diplomatiya, savdo-iqtisodiy aloqalar, investitsiya va innovatsion texnologiyalar sohasida salmoqli natijalarga erishilmoqda. Xususan, Singapur O'zbekiston uchun raqamli iqtisodiyot, elektron boshqaruv, ta'lim va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish sohalarida yetakchi tajribaga ega hamkor sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston esa mintaqaviy geosiyosiy holati, tabiiy resurslar salohiyati va inson kapitali orqali Singapur biznesi uchun istiqbolli va keng ko'lamli bozorni taqdim etmoqda. Shunga qaramay, mavjud hamkorlik salohiyati hali to'liq amalga oshirilgani yo'q. Buning sabablari sifatida huquqiy bazaning to'liq shakllanmaganligi, infratuzilmadagi kamchiliklar va ma'lumot almashinuvidagi uzilishlar keltirilishi mumkin. Ushbu to'siqlarni bartaraf etish uchun tizimli va

aniq maqsadlarga yo'naltirilgan islohotlar, ikki tomonlama kelishuvlar va hamkorlik formatlarini kengaytirish muhimdir. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va Singapur o'rtasidagi mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish ikki davlatning ham ichki ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga, ham mintaqaviy barqarorlikka xizmat qiladi. Kelgusida bu aloqalarni yanada mustahkamlash uchun ta'lim almashinuvi, qo'shma texnologik markazlar tashkil etish, va innovatsion investitsiya loyihalarni jadallashtirish zarurdir. Bu esa nafaqat ikki davlat, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaev, S. (2022). O'zbekistonning tashqi siyosati va mintaqaviy integratsiya jarayonlari. Toshkent: "Ilm-Ziyo" nashriyoti.
2. Chen, L. & Tan, Y. (2021). Singapore's Role in Regional Economic Integration: Opportunities for Central Asia. *Journal of Asian Economics*, 45(3), 120-138.
3. Davletov, J. (2023). Markaziy Osiyo va Singapur o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning rivojlanish istiqbollari. *Xalqaro munosabatlar jurnali*, 12(1), 55-70.
4. Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan. (2024). Annual Report on International Cooperation. Tashkent.
5. Singapore Economic Development Board. (2023). Singapore-Uzbekistan Economic Partnership: Progress and Prospects. Singapore.
6. Tursunov, A. (2021). Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar sohasida Singapur tajribasi. *Innovatsion iqtisodiyot va menejment*, 5(2), 45-59.
7. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). (2023). World Investment Report 2023. Geneva.
8. Yunusov, M. & Karimova, D. (2022). O'zbekiston-Singapur hamkorligi: iqtisodiy va madaniy jihatlar. *Mintaqaviy tadqiqotlar*, 8(4), 87-104.
9. Zhang, W. (2022). Cross-Border Cooperation in Asia: The Singapore Model. *Asian Development Review*, 39(1), 99-115.
10. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy veb-sayti. (2025). O'zbekiston va Singapur o'rtasidagi diplomatik aloqalar tarixi. <https://mfa.uz>